

**PROFESSOR SAMAROV RUSTAMJON SADRIDDINOVICH IJODIDA  
HARBIY PSIXOLOGIYA VA FALSAFIY YONDASHUVLARNING AHAMIYATI**

**Sadriddinov Suxrob Rustamjonovich**

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti*

*Pedagogika va ijtimoiy gumanitar kafedراسi mudiri,*

*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, (95.6310808)*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada psixologiya fanlari nomzodi, falsafa fanlari doktori, professor Samarov Rustamjon Sadriddinovichning hayot yo'llari hamda uning harbiy psixologiya fanining rivojlanishidagi ahamiyati va o'ziga xosliklari o'rganildi.*

**Kalit so'zlar:** *ilm, psixologiya, falsafa, xavfsizlik, tanqid.*

**KIRISH**

“Birovlarga baho berish, nafaqat ularning fazilatlariga, balki bizning ham ularga bo'lgan munosabatimiz xarakteriga bog'liq. Shu bosni, inson o'ziga osoyishtalik, birovlarga baxt tilasa bu, albatta, omad keltiradi”

**SAMARIYON**

XXI asr harbiy psixologiyasi o'ziga xos jihatlarga ega. Professor R.Samarovning psixologiya va falsafa sohasida yorqin iz qoldirgan, noyob iste'dod egasi va bu sohada ko'plab shogirdlarni yetishtirib chiqan olimning hayot yo'li va ilmiy izlanishlariga nazar solamiz.

Samarov Rustamjon Sadriddinovich 1970-yilning 9-may sanasida Samarqand viloyati, Samarqand tumani “Qulbapoyon” qishlog'ida dunyoga kelgan. Olim yoshlik chog'idayot o'zining istedodi bilan tengdoshlaridan ajralib turgan bo'lib, tumanning 39-o'rta maktabini oltin medal bilan tamomlagan. Professor Rustamjon Samarov hozirgi Samarqand davlat universitetining Tojik filologiya fakultetini imtiyozli diplom bilan tamomlagan. Shundan so'ng u Samarqand tumanidagi 33-o'rta maktabda ilk mehnat faoliyatini o'qituvchilik lavozimidan boshlaydi, so'ngra viloyatning bir nechta ilmiy dargohlarida (Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura - qurilish instituti, Samarqand davlat tibbiyot universiteti) assistent, loharant bo'lib ilm yo'liga kirib keladi.

**ILMIY TAHLIL VA METODOLOGIYA**

Ilk ijod namunalari, professor Rustamjon Samarov 1996 yilda chop etilgan Amir Temurning 660 yilligiga bag'ishlangan “Milliy qadriyatlar va ta'lim-tarbiya muammolari” nomli xalqaro konferentsiyada, “Oilaviy tarbiyaning etnopsixologik xususiyatlari” maqolasida, oilaviy tarbiya, oilada ota-ona, bobobuvi, aku-uka, opa-singillarning bola tarbiyasidagi ijtimoiy roli haqida psixologik

ko'rsatma va tavsfiyalar berilgan. Shu konfrensiyaning 2-qismida esa "Islom va axloq (Oilaviy muammolarning etnopsixologik xususiyatlari)" nomli tezisda, sharq tarbiyasida islom va axloq masalalari yoritilgan. 1997 yil Xalq ta'limi jurnalining 2-sonida "Oila mustahkamligida oila yetakchisining o'rni", Iqtisod va hisobot jurnalining 1998 yildagi 5-sonli nashrida "Hamma narsa yetarli bo'lsa" nomli maqolalari chop etilgan.

Usto, 1997 yilning 1-iyunida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti huzuridagi ixtisoslashtirilgan kengashda 19.00.05 - «Ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya» ixtisosligi bo'yicha psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilgan. Nomzodlik dissertatsiyasi himoyasidan so'ng bir nechta ilmiy maqolalar Экономика и статистика jurnalining 1998 yil 4-sonida "Пути совершенствования брачно-семейных отношений" va 5-6-sonlarida "Роль традиции гуманизма в укреплении духовных основ общества", 1998 yil Iqtisod va hisobot jurnali 2-sonida "Jamiyat ravnaqi yo'lida", shu jurnalning 1998 yildagi 4-sonida "Ahmad Donishning ijtimoiy-iqtisodiy qarashlari" h.k. ilmiy maqolalari chop etilgan. Olim ushbu yillarda ya'ne doktorlik dissertatsiyasi himoyasiga qadar 54 ta ilmiy maqolalarning muallifi hisoblanadi.

2005 yilning 9-dekabrida O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Ixtisoslashgan kengashda 09.00.11 - «Ijtimoiy falsafa» ixtisosligi bo'yicha falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qiladi va O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining qarori bilan unga 2009 yili dotsent, 2019 yili professor ilmiy unvoni berilgan. Professor R.Samarov o'zining yorqin fikr va mulohazalari bilan olimlar o'rtasida o'zining o'rniga ega ustozlardan bo'lgan.

Psixologiya fanlari nomzodi, Falsafa fanlari doktori, professor Samarov Rustamjon Sadriddinovichning 117 tadan ziyod ilmiy maqolalari nashr etilgan, 7 ta monografiya, ulardan "Qurolli Kuchlar feminizatsiyalashuvining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari" 2005 yil "Ziyo" nashriyoti 168 bet, "Harbiylik - sharaflilik kasb" 2006 yil, "Jamiyat va Qurolli Kuchlar feminizatsiyalashuvi" 2008 yil, "Xavfsizlikning metodologik asoslari" 2010 yil, "Siyosiy matn tahlili (metodologiya, nazariya, amaliyot)" 2010 yil, "Mudofaaviy faoliyat: nazariy yondashuvlar (monografiya)" 2017 yil, "Tizimli tahlil: nazariya va amaliyot masalalari" 2017 yillarda yozilgan. Uslubiy qo'llanmalar 2001 yil MV Qurolli Kuchlar Akademiyasida "Harbiy xizmatchilar va jamoalarni psixologik o'rganish", "Некоторые методы профессионального психологического обследования военнослужащих" Академия Вооруженных Сил Республики Узбекистан, 2001. – 30 с., 2004 yil "Девиантное поведение: характеристика форм и мотивов", "Шахс ва стресс" 2004 yilda, 2015 yilda "Axborotning

psixologik xavfsizligini taʼminlash mexanizmi” nomli uslubiy qoʻllanmalar va “Axborot xavfsizlik psixologiyasi”, “Tizimli tahlil” nomli oʻquv qoʻllanmalari chop etilgan.

Professor Rustamjon Samarovning katta va kuchli mahorat egasi ekanligini yana bir yaqqol namunasidir.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

“Sohibquron Amir Temur harbiy saʼnati”<sup>1</sup> ilmiy ommabop asari Amir Temurning mahorati va harbiy strategik tafakkuri hamda davlat mudofaa va xavfsizlik masalalaridagi qarashlarini psixologik talqinini och bergan. Kitob X bob, xotima, adabiyotlar roʻyxati hamda ilovalardan tashkil topgan boʻlib 280 betdan iborat. Bu kamyob asrni oʻqib oʻrgangan izlamuvchi, harbiy psixologiyani mukammal choʻqisini tushunishi bejiz emas. “Jangovar oʻrtoqlik psixologiyasi”<sup>2</sup> nomli uslubiy qoʻllanmasida Ijtimoiy-kasbiy munosabatlar tizimida doʻstlik va oʻrtoqlik munosabatlarida Sharq mutafakkirlarining doʻstlik va oʻrtoqlik haqidagi qarashlari va harbiy xizmatchilarning professional tayyorgarligini oshirishda doʻstlik va oʻrtoqlik anʼanalari masalari yoritilgan. Qoʻllanmada Ibn Sinoning quyidagi sheʼri oʻz aksini topgan:

“Doʻstim dushman bilan oʻtirma bisyor,  
Endi oʻtirmayman u bilan zinhor.  
Parhez qil shakardan zahari boʻlsa,  
Pashshadan qoch, qoʻnish joyi boʻlsa mor.  
Agar neʼmatga yetsang, sen adolat –  
Ham aqling birla ber doʻstlarga inʼom”<sup>3</sup>.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat tilini rivojlantirish departamenti buyurtmasiga binoan, oʻzbek tilini rivojlantirish jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan nashr etilgan “Harbiy atamalarning yangi izohli lugʻati”<sup>4</sup> da Harbiy atamalarning yangi izohli lugʻati harbiy faoliyatda, harbiy-ilmiy muloqotda keng qoʻllaniladigan 1230 ta atamalarni qamrab olgan. Lugʻat harbiy-ilmiy muloqotning tamoyillariga asoslangan tarzda tuzilgan. Lugʻatda harbiy-pedagogik faoliyat, harbiy ilmiy-tadqiqot olib boruvchilar, oliy harbiy taʼlim muassasalari foydalanishlari mumkin. Unda harbiy atamalarining zamonaviy taʼriflari berilgan. Professor Rustamjon Samarovning “Xavfsizlikning metodologik asoslari”<sup>5</sup> nomli monagrafiyada bugungi kunda “xavfsizlik” tushunchasiga oid qator ilmiy yondashuvlar mavjud boʻlib, uning sohalari turli

<sup>1</sup> Sohibqiron Amir Temur harbiy saʼnati. {Matn}/R.Samarov, S.Ahrorov, J.Xolmoʻminov, S.Sadriddinov.- Toshkent: “Maʼnaviyat”, 2022.-280b.

<sup>2</sup> R.Samarov. Qurolli Kuchlar Akademiyasi 2020.- 45b.

<sup>3</sup> R.Samarov, Jangovar oʻrtoqlik psixologiyasi. -12b, 2020.

<sup>4</sup> R.Samarov. A.Alimov, K.Nasirov, Sh.Ikramov, B.Tursunov, M.Moʻminov/.Toshkent: “Inovatsiya-Ziyo”, 2020, 384 b.

<sup>5</sup> R.Samarov. Xavfsizlikning metodologik asoslari. Toshkent: Akademiya, 2010.-172b.

fanlar doirasida tadqiq etilgan bo'lib, bu monografiyada "xavfsizlik", "milliy xavfsizlik", "barqarorlik", "siyosiy barqarorlik", "axborot-psixologik xavfsizlik", "shaxs xavfsizligi", "ijtimoiy xavfsizlik", "harbiy xavfsizlik" kabi tushunchalarga sharhlar berilgan.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin bo'ladiki psixolog, filosof va palitolog olim Rustamjon Samarovning yozgan maqola, o'quv qo'llanma, darslik va monografiyalarida zamonaviy harbiy psixologiyaning yangicha talqini, zamonaviy metodlarini qo'llashning oson va tushunarli yo'llarini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Umuman olganda olimning asosiy maqsadini, uning ilmiy ishlarini o'rganganda muhim jihatlarni tushunish qiyin emas. Professorning aksariyat monografiyalarida zamonning muammolarini ya'ne axborot xurujlari, axboriy xurujlar, zamonaviy harbiy urushdagi psixologik taktlar, falsafiy qarashlari ogohlikka, to'g'ri yo'lga chorlash g'oyasini ilgari surgan. Undan tashqari hozirgi kunda jamiyatimizda qanday g'oyalar ilgarilab ketayotgani-yu, qanday g'oyalar chetda qolayotganligini keltirib o'tishga harakat qilgan. Shu bilan birga inson ongidagi, axloqidagi, tarbiyasidagi o'zgarishlar va ularning qanday yo'ldan yurganliklari eng maqbul yo'l ekanligi haqidagi mavzularga ko'p e'tibor qaratgan. Professor R.Samarov faqatgina bir yo'nalishda emas aksincha rang-barang usulda ijod qilishga uringan. Eng e'tiborli jihati uning yozgan kitoblarida faqat bir g'oyani emas balki turli tushunchalarga guvoh bo'lasiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI;**

1. Sohibqiron Amir Temur harbiy sa'nati. {Matn}/R.Samarov, S.Ahrorov, J.Xolmo'minov, S.Sadriiddinov.-Toshkent:"Ma'naviyat", 2022.-280b.
2. R.Samarov, Jangovar o'rtoqlik psixologiyasi. -12b, 2020.
3. R.Samarov. A.Alimov, K.Nasirov, Sh.Ikramov, B.Tursunov, M.Mo'minov/.Toshkent: "Inovatsiya-Ziyo", 2020, 384 b.
4. R.Samarov. Xavfsizlikning metodologik asoslari. Toshkent: Akademiya, 2010.-172b.
5. R.Samarov, Jangovar o'rtoqlik psixologiyasi. -12b, 2020.
6. R.Samarov. A.Alimov, K.Nasirov, Sh.Ikramov, B.Tursunov, M.Mo'minov/ "Harbiy atamalarning yangi izohli lug'ati".Toshkent: "Inovatsiya-Ziyo", 2020, 384 b.